

THE ART OF SPEECH: THE POWER OF WORDS

Xudaynazarov Ikram Imamovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

“Ozbek tili va adabiyoti” kafedrası dotsenti. O‘zbekiston Qarshi

Xudaynazarov 6318@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-7737-8577>

УДК 808,5

Abstract

The article analyzes the essence of speech, its significance in social life, and the specific features of the art of oratory. Based on the works of ancient orators, particularly Cicero, as well as modern researchers (Golden, Gehring, James, Smith, and others), the structure, style, and factors of expressiveness in speech are revealed. In addition, the paper examines interactive forms of lecture speech in the educational process, their effectiveness, and their role in establishing communication with the audience. The research results contribute to a deeper understanding of the role of speech in social, pedagogical, and cultural processes.

Keywords: Speech, oratory, Cicero, lecture, interactive learning, rhetoric, expressiveness, communication.

Introduction

Kirish

Nutq insoniyatning eng qadimiy va samarali kommunikativ vositasi bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti va insonlararo muloqotning poydevorini tashkil etadi. Nutq orqali inson o‘z fikr va g‘oyalarini ifodalaydi, boshqalar bilan tajriba almashadi hamda ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi. Shu bois nutq masalasi qadimdan buyon falsafa, tilshunoslik, pedagogika va ritorika fanlarining markaziy mavzularidan biri bo‘lib kelmoqda.

Notiqlik san‘ati — nutqning alohida bir ko‘rinishi bo‘lib, u, nafaqat fikrni mantiqiy izchillikda bayon etish, balki tinglovchi ongiga va hissiyotiga kuchli ta‘sir o‘tkazish san‘atidir. Antik davr mutafakkirlari, xususan, Aristotel, Sitseron va Kvintilianlar o‘z asarlarida notiqlikni mantiq, hissiyot va shaxsiy obro‘ning

uyg'unligi sifatida talqin qilganlar. Ularning qarashlari, nafaqat, o'z davrida, balki bugungi zamonaviy jamiyatda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Hozirgi davrda nutq va notqlik masalalari faqatgina tilshunoslik doirasida emas, balki pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlari nuqtayi nazaridan ham keng o'rganilmoqda. Xususan, nutqning ijtimoiy jarayonlardagi ahamiyati, uning ta'lim va tarbiya tizimidagi roli, shuningdek, ma'ruza nutqining interfaol shakllarini qo'llash imkoniyatlari ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishiga aylanmoqda.

Mazkur maqolada nutqning mohiyati va jamiyat hayotidagi ahamiyati, notqlik san'atining o'ziga xos xususiyatlari, antik davr notqlari va zamonaviy tadqiqotchilar qarashlari hamda ta'lim jarayonida interfaol ma'ruza nutqining samaradorligi tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nutq va notqlik san'ati qadimdan buyon ko'plab mutafakkirlar va olimlarning tadqiqot obyekti bo'lib kelmoqda. Antik davrda Aristotel, Sitseron va Kvintilianlar ritorikaning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Xususan, Ciceron (1884) nutqni mantiqiy izchillik, hissiy ta'sirchanlik va notiqning shaxsiy obro'sini uyg'unlashtirish orqali samarali bo'lishini ta'kidlagan. Aristotel esa o'zining mashhur ritorika nazariyasida logos (mantiq), pathos (hissiyot) va ethos (shaxsiy obro')ni nutqning asosiy elementlari sifatida ko'rsatadi (Aristotle, 2007).

XX asrdan boshlab nutq masalasi lingvistika va psixologiya fanlarida ham keng o'rganila boshlandi. Hjelmquist (1979) nutqni inson tafakkuri va ijtimoiy

1. Cicero – “*De Oratore*” (Mil. avv. 55-yil)

2. Aristotle. (2007). *Rhetoric*. (Trans. W. Rhys Roberts). Dover Publications.

munosabatlarning eng qadimiy kommunikativ vositasi sifatida baholaydi. Gehring (1953) nutqning tuzilishi va mantiqiy izchilligini ta'kidlab, uning ta'sirchanligi dalillar va hissiy ta'sir uyg'unligida namoyon bo'lishini qayd etgan. Golden (1965) esa samarali nutqning asosiy belgilarini ravshanlik, ta'sirchan g'oyalar va ijrodagi jonlilik sifatida sanab o'tadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ham nutqni faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sifatida o'rganmoqdalar. James (2007) nutqni auditoriyani ishontirish va ruhlantirish quroli sifatida talqin qilsa, Smith (2012) uni “ikki martalik kodlash” jarayoni deb

ta'riflaydi: ya'ni, matn mazmuni yozuvchi tomonidan shakllantiriladi, keyin esa ma'ruzachi unga ohang, intonatsiya va hissiy ifodani yuklaydi. Bu qarashlar nutqning faqat informativ emas, balki psixologik va emotsional ta'sirchanligini ham ko'rsatadi.

Pedagogika sohasida nutq va notiqlik san'ati o'quv jarayonining samaradorligini oshirish vositasi sifatida tadqiq etilmoqda. McDaniel (2010) ma'ruzani og'zaki va yozma nutqni birlashtiruvchi "ko'prik" sifatida baholagan. Malik va Janjua (2011) interfaol ma'ruza strategiyalarining samaradorligini tahlil qilib, savol-javob, munozara va yozma mashqlar yordamida auditoriyani faol jalb etish mumkinligini ta'kidlagan. White (2011) va Heitzmann (2010) esa interaktiv ma'ruzalarning talabalarda yuqori darajadagi tafakkur va analitik qobiliyatni shakllantirishdagi ahamiyatini alohida ko'rsatganlar.

O'zbek tilshunosligida ham nutq va notiqlik san'ati bo'yicha salmoqli

1. Hjelmquist, E. "Psycholinguistics as Scientific Encounters." *Folia Linguistica*, 13(3/4), 1979. pp. 215–227.
2. Gehring, M. L "The High School Oration: Fundamentals." *The Speech Teacher*, 2. 1953., pp. 101–104.
3. Golden (1965) 1968-yilgi "The Rhetoric of Western Thought"
4. James, N. *Writing at Work: How to Write Clearly, Effectively and Professionally*. Crows Nest, NSW: Allen & Unwin, 2007) pp. 90–95.
5. Smith, R. *DBecoming a Public Relations Writer: A Writing Workbook for Emerging and Established Media*. New York: Routledge 2012. pp. 330–345.
6. McDaniel, K. N. "Harry Potter and the Ghost Teacher: Resurrecting the Lost Art of Lecturing." *The History Teacher*, 43(2), 2010. pp. 289–295.
7. Malik, S., & Janjua, F. "Active Lecturing: An Effective Pedagogical Approach." *International Journal of Academic Research*, 3(2), pp. 2011. 963–967.
8. White, C. (2011). Interactive lecturing. *Journal of Veterinary Medical Education*, 38(2), 140–142.
9. Heitzmann, R. (2010). *Ten suggestions for enhancing lecturing*. University of Houston–Victoria.

tadqiqotlar mavjud. Begmatov E (1995) o'zbek tili uslubiyati doirasida nutqning uslubiy xususiyatlarini yoritgan bo'lsa, Madvaliyev.A, (2006) tilning stilistik imkoniyatlari orqali nutqning ta'sirchanlik omillarini tahlil qilgan. Jo'rayev.M (2012) esa "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" asarida nutqning ijtimoiy-

madaniy ahamiyati va notqlik san'atining milliy an'analar bilan bog'liqligini chuqur tadqiq etgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotning maqsadi — nutqning mohiyati, notqlik san'ati va uning ijtimoiy hamda pedagogik jarayonlardagi o'rnini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishdan iboratdir. Shu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Nazariy tahliliy metod

Mazkur tadqiqotda nazariy tahliliy metoddan foydalanildi. Avvalo, nutq va notqlik san'ati haqidagi antik manbalar — Aristotelning "*Ritorika*", Sitseronning "*Orator*" va "*De Oratore*", Kvintilianning "*Institutio Oratoria*" asarlari chuqur o'rganilib, ularda bayon etilgan notqlik san'atining asosiy tamoyillari, nutqning tuzilishi, so'zning ta'sirchanlik darajasi va tinglovchiga ta'sir etish mexanizmlari tahlil qilindi. Ushbu asarlar antik davrdan boshlab shakllangan ritorika an'anasining nazariy poydevorini tashkil etgani bois, zamonaviy ilmiy qarashlar bilan qiyosiy o'rganishga imkon berdi. Shuningdek, notqlik san'ati bo'yicha zamonaviy tadqiqotchilar — Golden, Gehring, James, Smith, White va boshqa olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, ularda ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, persuaziv (ishontiruvchi) nutq texnikalari va auditoriya psixologiyasi haqidagi qarashlar tizimli ravishda o'rganildi. Zamonaviy ritorikadagi yondashuvlar antik an'analarning davomchisi bo'lsa-da, ular nutqning psixologik, sotsiologik va pedagogik jihatlarini yanada kengroq yoritgani bilan ajralib turadi.

1. Begmatov, E. (1995). *O'zbek tili uslubiyati*. Toshkent: O'qituvchi.
2. Madvaliyev, A. O'zbek tili stilistikasi. *Toshkent: Fan*, . 2006. 246 b.
3. Jo'rayev, M. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. *Toshkent: Yangi asr avlodi*, 2012.210-b.

Shuningdek, tilshunoslik, pedagogika va psixologiya yo'nalishlariga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va maqolalar o'rganilib, ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlashtirildi. Tilshunoslik nutqning strukturaviy va semantik xususiyatlarini yoritgan bo'lsa, pedagogika notqlikning tarbiyaviy va didaktik ahamiyatiga urg'u beradi. Psixologiya esa nutqning ta'sirchanligi, emotsional ta'sir

mexanizmlari, tinglovchining idrok jarayoni va kommunikativ motivatsiyani tahlil qiladi.

2. Qiyosiy metod

Tadqiqot jarayonida qiyosiy metoddan foydalanildi. Avvalo, antik davr notiqiqlari — Aristotel, Sitseron, Kvintilian kabi mutafakkirlarning nutq, muloqot, ishontirish san’ati va ritorika haqidagi nazariy qarashlari zamonaviy ritorika olimlari (Golden, Gehring, James, Smith, White va boshqalar)ning ilmiy yondashuvlari bilan solishtirildi. Antik asarlar notiqlikning asosiy qonuniyatlarini, nutqning tuzilishi, pathos–ethos–logos tamoyillari, tinglovchiga ta’sir etish strategiyalari va nutq madaniyatining poydevorini belgilab bergani aniqlansa, zamonaviy tadqiqotchilar bu konsepsiyani kengaytirib, uni kommunikativ psixologiya, pedagogika, semiotika, multimodal muloqot kabi yangi sohalar bilan boyitgani kuzatildi. Ushbu ikki davrning ilmiy qarashlari o’rtasida mavjud o’xshashliklar (nutqning ta’sirchanlik tamoyillari, so’zning kuchi, auditoriya bilan aloqaning ahamiyati) va farqlar (texnologik vositalarning qo’shilishi, interaktiv kommunikatsiya, raqamli ritorika) tizimli ravishda tahlil qilindi.

Bundan tashqari, o’zbek tilshunosligidagi nutq va notiqlik masalalarini yoritgan tadqiqotchilar — Abduazizov, Begmatov, Jo’rayev, Madvaliyev va boshqa mahalliy olimlarning ishlari xalqaro ilmiy yondashuvlar bilan qiyosiy o’rganildi. Mahalliy manbalarda nutq madaniyati, so’zning ma’naviy-axloqiy yuklamasi, milliy notiqlik an’analari, badiiy va ma’naviy nutqning o’ziga xos jihatlari ko’proq yoritilgan bo’lsa, xalqaro nazariyalarda nutq texnologiyalari, pragmatik strategiyalar, muloqot psixologiyasi va mediakommunikatsiya kabi yo’nalishlarning ustuvorligi qayd etildi.

Ushbu qiyosiy tahlil orqali qadimiy ritorika, zamonaviy kommunikativ nazariya va o’zbek milliy nutq maktabi bir-birini to’ldiruvchi ilmiy tajribalar ekanligi aniqlandi. Shuningdek, har uch yo’nalishning o’ziga xosligi bilan birga umumiy tamoyillari — nutqning maqsadga yo’naltirilganligi, tinglovchini ishontirish va ta’sirlantirish mexanizmlari, so’zning ijtimoiy ahamiyati — mushtarak ekani ilmiy asosda aniqlashtirildi.

3. Kontent-tahlil metodi

Tadqiqotda kontent-tahlil metodi qo'llanildi, ya'ni nutq va ma'ruza san'atiga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, o'quv qo'llanmalari hamda zamonaviy pedagogik manbalarda ilgari surilgan asosiy g'oya, tushuncha va nazariy yondashuvlar tizimli ravishda o'rganildi. Avvalo, notiqlik san'atining mohiyati, nutqning ta'sirchanlik omillari, auditoriya psixologiyasi, ma'ruzachi nutqining tuzilishi, uning logik, ritorik va pragmatik asoslari turli manbalarda qanday talqin etilgani aniqlashtirildi. Mazkur adabiyotlarda uchraydigan umumiy nazariy tamoyillar, atamalar, strukturaviy elementlar va metodik tavsiyalar ajratib olindi, ular o'zaro qiyoslanib, umumlashirilgan konseptual xarita shakllantirildi.

Shuningdek, kontent-tahlil davomida ma'ruza nutqining **interfaol (interaktiv)** shakllari — savol-javob, muloqot, bahs-munozara, guruhli muhokama, namoyish (demonstratsiya) kabi pedagogik metodlarning samaradorligi ilmiy adabiyotlar asosida chuqur tahlil qilindi. Har bir interfaol shaklning nutq jarayoniga ta'siri, ularning auditoriyani faollashtirishdagi o'rni, muloqotning ikki yo'nalishli bo'lishiga xizmat qilishi, tinglovchining fikrlash jarayonini jonlantirishi va ma'ruzachining kommunikativ kompetensiyasini kuchaytirishi kabi jihatlar ilmiy manbalar asosida baholandi. Xususan, interfaol metodlarning ta'lim jarayonidagi psixologik, ijtimoiy va lingvopragmatik afzalliklari aniqlanib, ular notiqlik san'atining zamonaviy talqinlari bilan bog'lab o'rganildi.

Natijada, mavjud adabiyotlarning kontent tahlili nutq madaniyati, nutq texnologiyalari va ma'ruza uslubiylarining nazariy asoslarini aniqlash, ularning zamonaviy ta'limdagi qo'llanilish mexanizmlarini belgilash va ushbu tadqiqotning ilmiy-metodologik poydevorini mustahkamlashga xizmat qildi.

4. Pedagogik kuzatuv va tajriba metodi

Tadqiqotda pedagogik kuzatuv va tajriba metodi qo'llanilib, ma'ruza nutqining ta'lim jarayonidagi amaliy qo'llanishi, uning o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotga ta'siri, shuningdek, interfaol usullar orqali talabalarda faollik uyg'otish darajasi amalda o'rganildi. Avvalo, auditoriya sharoitida o'qituvchilarning ma'ruza o'qish texnikasi, nutqning struktura va mantiqiy izchilligi, ma'lumotni yetkazish uslubi, ta'sirchanlik elementlari, vizual va og'zaki vositalardan foydalanish tajribasi kuzatildi. Bu jarayon ma'ruza nutqining qaysi jihatlari

tinglovchi e'tiborini jalb qilishi, qaysi omillar esa uni pasaytirishi mumkinligini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, interfaol ma'ruza shakllarining — savol-javob, bahs-munozara, kichik guruhlarda fikr almashish, namoyish (demonstratsiya), real misollar asosida tahlil qilish — talaba faolligini oshirishdagi samaradorligi amaliy tajribalar asosida baholandi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ma'ruzada interfaol texnikalarning qo'llanishi talabaning fikrlash jarayonini faollashtiradi, ularni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, nutqiy faollik va muloqotga kirishish istagini oshiradi. Ayniqsa, savol-javob formatida o'tkazilgan qisqa muloqotlar, namoyish orqali mavzuni vizuallashtirish, muammoli vaziyatni birgalikda tahlil qilish talabalar tomonidan yuqori qiziqish bilan qabul qilindi.

Tajriba davomida interfaol ma'ruzalarning o'quvchilarda eslab qolish darajasi, tushunish ko'rsatkichlari va kommunikativ faollikni oshirishdagi roli ham kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, interfaol elementlar bilan boyitilgan ma'ruza an'anaviy bir yo'nalishli ma'ruzaga nisbatan ko'proq motivatsiya uyg'otadi, talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi va ta'lim jarayonida samarali teskari aloqaning shakllanishiga sharoit yaratadi.

Shu tariqa, pedagogik kuzatuv va tajriba metodlari orqali ma'ruza nutqining o'quv jarayonidagi amaliy ahamiyati, uning interfaol shakllari esa ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekani ilmiy-amaliy asosda tasdiqlandi.

Natija va muhokama. Nutqning asosiy maqsadi — so'z yoki imo-ishoralar yordamida odamlar o'rtasida muloqot qilish, ma'noni bir shaxsdan boshqasiga yoki bir guruhdan keng auditoriyaga yetkazishdir. Tilshunoslikda nutq insoniyatning eng qadimiy kommunikativ vositasi sifatida qaraladi va u jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarning asosi sanaladi (Hjelmquist, 1979). Nutq yozma shakl bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi: yozuv nutqni mustahkamlasa, nutq yozuvning jonli ifodasidir. Inson nutq orqali o'z fikrlarini ifodalaydi, aniqlik kiritadi, ko'rsatmalar beradi yoki g'oyalarini boshqalarga yetkazadi. Shu bilan birga, nutq boshqalarni ishontirish, ruhlantirish va ta'sirlash quroli sifatida ham xizmat qiladi (Cicero, 1884; Golden, 1965).

Nutq ijtimoiy hayotda fuqarolik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. U to'liq yoki qisman tinglansa ham, baribir inson tafakkuri va his-tuyg'ularining ifodasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Sitseronning qayd etishicha, notiqlik

san'ati shunchaki so'zlarni chiroyli ifodalash emas, balki inson aql-zakovati va his-tuyg'ularini tinglovchiga ta'sirchan tarzda yetkazish san'atidir (Cicero, 1884). Demak, nutq muloqot vositasi bo'lish bilan birga, jamiyatda mafkuraviy, tarbiyaviy va madaniy funksiyalarni ham bajaradi.

Zamonaviy tadqiqotchilar nutqni ko'p funksiyali jarayon sifatida talqin qiladilar. Masalan, Gehring (1953) nutqning tuzilishi va mantiqiy izchilligini alohida ta'kidlagan bo'lsa, James (2007) uni auditoriyani ishontirish va ruhlantirish quroli sifatida baholaydi. Smith (2012) esa nutqni "ikki martalik kodlash" jarayoni deb izohlaydi: avval yozuvchi mazmunni shakllantiradi, keyin esa ma'ruzachi unga ohang, kayfiyat va auditoriya bilan bevosita aloqadorlik bag'ishlaydi.

Shunday qilib, nutq insonning tafakkuri, his-tuyg'ulari va ijtimoiy

1. Hjelmquist, E. "Psycholinguistics as Scientific Encounters." *Folia Linguistica*, 13(3/4), 1979. pp. 215–227.

2. Cicero. M. T. *Stories of Roman History from Cicero's Orations*. London: George Bell & Sons 1884., pp. 147–178.

3. Golden (1965) 1968-yilgi "The Rhetoric of Western Thought"

4. Gehring, M. L. "The High School Oration: Fundamentals." *The Speech Teacher*, 2. 1953., pp. 101–104.

5. Golden (1965) 1968-yilgi "The Rhetoric of Western Thought"

6. Cicero. M Yuqoridagi asar.

7. Gehring, M. L. M Yuqoridagi asar.

8. James, N. *Writing at Work: How to Write Clearly, Effectively and Professionally*. Crows Nest, NSW: Allen & Unwin, 2007) pp. 90–95.

9. Smith, R. D. *Becoming a Public Relations Writer: A Writing Workbook for Emerging and Established Media*. New York: Routledge 2012. pp. 330–345.

Shunday qilib, nutq insonning tafakkuri, his-tuyg'ulari va ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi murakkab jarayon sifatida qaraladi. Uning maqsadi nafaqat ma'lumot yetkazish, balki auditoriya ongiga ta'sir o'tkazish, ularni ruhlantirish va muayyan harakatlarga undashdan iboratdir. Shu bois nutq san'ati qadimdan buyuk mutafakkirlar — Aristotel, Sitseron, Kvintilianlardan tortib, zamonaviy ritorik tadqiqotchilargacha bo'lgan ilmiy izlanishlarda markaziy mavzu bo'lib kelmoqda (Cicero, 1884; Golden, 1965; White, 2011).

Nutqda ma'ruzachining shaxsiyati, uslubi, intonatsiyasi va hissiyoti yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir notiq o'z nutqi orqali nafaqat ma'lumot uzatadi, balki

o‘zining ichki dunyosini, fikrlash uslubini va auditoriyaga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi. Shu bois, ritorika qadimdan inson shaxsiyatini ochib beruvchi san’at sifatida e’tirof etib kelinadi. Nutqning ovoz ohangi, so‘z tanlovi, pauzalar, hatto imo-ishoralar ham ma’ruzachining individual qiyofasini shakllantiradi.

Har qanday nutqning aniq maqsadi bo‘lishi zarur. Kundalik turmushda qisqa suhbat yoki ro‘yxat tuzishdan tortib, ilmiy ma’ruza, siyosiy chiqish yoki tantanali marosimdagi nutqqacha hammasi muayyan niyatni amalga oshirishga xizmat qiladi. Sitseron (1884, 147) ta’kidlaganidek, nutqning butun kuchi auditoriya hissiyotlarini uyg‘otish va ularning ongiga ta’sir o‘tkazish qobiliyatida mujassamdir. Uning fikricha, notiqlik san’ati inson tafakkuri, mantiqi va his-tuyg‘ularining uyg‘unligidan iborat bo‘lib, faqat shundagina chinakam ta’sirchan nutq yuzaga keladi.

Zamonaviy tadqiqotchilar ham ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar. Golden (1965, 185) yaxshi nutqning asosiy belgilarini ravshanlik, ta’sirchan g‘oyalar, jonli uslub va ijrodagi xilma-xillik sifatida sanaydi. Ravshanlik nutqning tushunarlilikini ta’minlasa, ta’sirchan g‘oyalar tinglovchini ruhlantiradi, jonli uslub esa diqqatni

1. Cicero. M. T. *Stories of Roman History from Cicero’s Orations*. London: George Bell & Sons 1884., pp. 147–178.

2. Golden (1965) 1968-yilgi “The Rhetoric of Western Thought”

3. “Sitseron (1884, 147)” ko‘rsatilishi — bu Sitseronning “De Oratore” asarining 1884-yil, 147-b.

5. 2. Golden (1965) 1968-yilgi “The Rhetoric of Western Thought” asar

saqlashga yordam beradi. Gehring (1953, 101) esa nutqning kuchini mantiqiy dalillar va hissiy ta’sirning uyg‘unligida ko‘radi. Uning fikricha, auditoriyani ishontirish uchun nutq izchil mantiqqa ega bo‘lishi bilan birga, tinglovchining qalbiga ham yo‘l topishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, notiqlik san’atida ikki asosiy omil — logos (mantiqiy asos) va pathos (hissiy ta’sir) uyg‘unlashishi talab etiladi. Aristotel ritorika nazariyasida ham aynan shu jihatlarni urg‘ulaydi: logos tinglovchini aql orqali ishontirsa, pathos uning hissiyotlariga ta’sir o‘tkazadi, ethos esa notiqning shaxsiy obro‘sini mustahkamlaydi (Aristotle, 2007). Faqat quruq dalillarga asoslangan nutq auditoriyani zeriktirishi, faqat hissiyotlarga qurilgan nutq esa ishonchlilikdan yiroq

bo‘lishi mumkin. Demak, eng muvaffaqiyatli notiq ana shu uch elementni — mantiq, hissiyot va shaxsiy obro‘ni uyg‘unlashtira olgan kishidir.

Smith (2012, 334) nutqni “ikki martalik kodlash” jarayoni sifatida talqin qiladi: avval yozuvchi mazmunni shakllantiradi va uni ramziy shaklda ifodalaydi, so‘ngra ma’ruzachi unga ovoz, ohang, hissiyot va auditoriya bilan bevosita muloqot ruhini singdiradi. Shunday qilib, nutq oddiy matndan ko‘ra kengroq ma’noga ega bo‘lib, inson tafakkuri va qalbining bevosita aksidir.

Umuman olganda, notqlik san’atining mukammalligi shundaki, u tinglovchini faqat bilim jihatidan boyitibgina qolmay, balki uni ruhlantiradi, ilhomlantiradi va ma’lum harakatlarga undaydi. Shu sababli nutq qadimdan jamiyatning mafkuraviy, siyosiy va madaniy hayotida markaziy o‘rin tutib kelmoqda va bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Sitseron notqlik san’atini oltita bo‘g‘inga ajratadi: kirish (exordium), bayon (narratio), bo‘lish (partitio), tasdiqlash (confirmatio), rad etish (refutatio) va peroratsiya (peroratio) ya’ni xulosa. Bu bo‘g‘inlarning har biri nutqning mantiqiy izchilligi va ta’sirchanligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Kirish tinglovchi

1. Gehring, M. L “The High School Oration: Fundamentals.” *The Speech Teacher*, 2. 1953., pp. 101–104.

2. Aristotle. (2007). *Rhetoric*. Dover Publications. (W. Rhys Roberts tarjimasini)

3. Smith, R. D *Becoming a Public Relations Writer: A Writing Workbook for Emerging and Established Media*. New York: Routledge 2012. pp. 334-b.

e’tiborini jalb qilishga xizmat qilsa, bayon asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi. Bilish qismida asosiy fikrlar aniqlanadi va kelishilgan hamda bahsli nuqtalar ajratiladi. Tasdiqlash bo‘limida dalillar ishonarli tarzda bayon qilinadi, rad etish esa qarshi fikrlarni yo‘qqa chiqaradi. Nihoyat, peroratsiyada nutqning umumiy xulosasi chiqarilib, auditoriya hissiyotlariga kuchli ta’sir o‘tkaziladi (Cicero, 1884, 178).

Sitseron fikricha, notqlik faqatgina fikrni bayon etish emas, balki ijro san’ati hamdir. Ya’ni, nutq mazmuni bilan bir qatorda “nafislik va qadr-qimmat”ga ega bo‘lishi lozim. U so‘zlarning tanlanishi, ohangdorligi, intonatsiya va ritmning muvozanatini notqlikning estetik jihatlari sifatida ko‘rsatadi. Shunday qilib, notiq nafaqat auditoriyaga ma’lumot yetkazuvchi shaxs, balki san’atkor hamdir.

Zamonaviy tadqiqotchilar ham Sitseronning ushbu yondashuvini qo‘llab-quvvatlaydilar. Golden (1965, 185) nutqni ta’sirchan qilish uchun nafaqat dalillar,

balki ijro uslubining ham muhimligini ta'kidlaydi. James (2007, 91) esa Tsitseron tomonidan belgilangan oltita bo'g'in nutqni professional darajada tashkil etishda universal metod sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaganini qayd etadi.

Shu bois, notiqlik san'ati mazmun va shaklning uyg'unligidan iboratdir: dalillar mantiqiy asosni tashkil etsa, ijro jarayoni ularni tinglovchiga ta'sirchan yetkazish imkonini beradi. Demak, nutq inson tafakkurining mahsuli bo'lish bilan birga, ijro mahoratining ham yorqin ifodasidir.

Ma'ruza nutqi ta'lim jarayonida muhim vositalardan biri hisoblanadi. U og'zaki va yozma so'z o'rtasida "ko'prik" vazifasini bajarib, murakkab bilimlarni tizimli ravishda auditoriyaga yetkazishga xizmat qiladi (McDaniel, 2010, 290). Shu jihatdan, ma'ruza bir tomondan ilmiy ma'lumotlarni ixchamlashtirib bayon etish, boshqa tomondan esa talabalarning mantiqiy va analitik fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

1. Cicero. M. T. *Stories of Roman History from Cicero's Orations*. London: George Bell & Sons 1884., pp. 178.

2. Golden (1965) yilgi "The Rhetoric of Western Thought" 185-b

3. James, N. *Writing at Work: How to Write Clearly, Effectively and Professionally*. Crows Nest, NSW: Allen & Unwin, 2007) pp. 91.

5. McDaniel, K. N. "Harry Potter and the Ghost Teacher: Resurrecting the Lost Art of Lecturing." *The History Teacher*, 43(2), 2010. pp. 290.

Biroq, an'anaviy ma'ruza shakli ko'pincha talabalarda passiv o'rganishni rag'batlantirishi mumkin. Tinglovchi faqat tayyor bilimni qabul qiladi, ammo uni tahlil qilish va mustaqil fikr yuritishda cheklangan bo'ladi. Shu sababli, zamonaviy pedagogikada faol o'qitish usullarini qo'llash zarurati alohida ta'kidlanmoqda. Malik va Janjua (2011, 966) interfaol strategiyalar — savol-javob, bahs-munozara, qisqa namoyishlar va yozma mashqlarni — an'anaviy ma'ruzaga integratsiya qilish orqali tinglovchilarni faol ishtirokchi sifatida jarayonga jalb etishni taklif etadi.

Shuningdek, White (2011, 231) interaktiv ma'ruzalarning ustunliklarini sanab o'tib, ularning diqqatni jalb etish, murakkab tushunchalarni sodda shaklda izohlash va talabalarda yuqori darajadagi fikrlashni shakllantirishdagi ahamiyatini alohida ko'rsatadi. Heitzmann (2010, 52) ham interfaol ma'ruzalarni samarali ta'lim shakli deb hisoblab, o'qituvchilarga diqqatni jalb qiluvchi usullar, hazil, fanlararo bog'lanishlar va motivatsion elementlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

Demak, zamonaviy ta'limda ma'ruza faqat ma'lumot yetkazish vositasi emas, balki interfaol muloqot maydoni sifatida qaralishi kerak. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki auditoriya bilan suhbatlashuvchi, ularni faollikka undovchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu tarzda ma'ruza formati passiv tinglashni emas, balki faol o'rganish va ijodiy fikrlashni rag'batlantiruvchi pedagogik vositaga aylanadi. Zamonaviy pedagogikada nutqning o'rni beqiyosdir. Xususan, ma'ruza ta'lim jarayonida ilmiy bilimlarni tizimli va mantiqiy tarzda yetkazish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U og'zaki va yozma so'z o'rtasida "ko'prik" vazifasini bajarib, bir tomondan auditoriyaga ma'lumot berish, ikkinchi tomondan esa o'qituvchi bilan talabalar o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi (McDaniel, 2010, 290).

Malik va Janjua (2011, 966) fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv ma'ruza alohida ahamiyatga ega. Ular savol-javob, munozara, qisqa

1. Malik va Janjua (2011, 966) Malik, S., & Janjua, F. "Active Lecturing: An Effective 2. Pedagogical Approach." *International Journal of Academic Research*, 3(2), pp. 2011. 966.

3. White, G. "Interactive Lecturing." *The Clinical Teacher*, 8(4), . 2011 pp. 231.

4. Heitzmann, R "10 Suggestions for Enhancing Lecturing." *Education Digest*, 75(9), 2010. pp. 52.

(McDaniel, 2010, 290). McDaniel, K. N. "Harry Potter and the Ghost Teacher: Resurrecting the Lost Art of Lecturing." *The History Teacher*, 43(2), 2010. pp. 290.

namoyish va yozma mashqlar kabi metodlar orqali talabani faollikka chorlaydi, uning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda passiv tinglovchini faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa ma'ruzani oddiy ma'lumot yetkazish shaklidan faol o'quv jarayoniga aylantiradi.

Heitzmann (2010, 52) ma'ruzalarni yanada samarali qilish uchun motivatsion usullardan, auditoriyaning e'tiborini jalb etuvchi hazilomuz elementlardan, fanlararo bog'lanishlardan va amaliy misollardan foydalanishni tavsiya qiladi. White (2011, 231) esa interaktiv ma'ruzalar nafaqat bilim berish, balki talabalar tafakkurini kengaytirish, murakkab tushunchalarni sodda qilib izohlash va yuqori darajadagi tahliliy fikrlashni shakllantirish uchun samarali metod ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Demak, zamonaviy ta'limda ma'ruza oddiy monolog emas, balki faol muloqot maydoniga aylanmoqda. Bu jarayonda o'qituvchi bilim beruvchi shaxs bo'lish bilan birga, talabalarni o'ylashga, bahslashishga, savollar berishga va mustaqil xulosalar chiqarishga undovchi moderator vazifasini ham bajaradi.

Nutqning asosiy vazifalaridan biri auditoriya ongiga va hissiyotiga ta'sir o'tkazishdir. So'zlovchi tomonidan aytilgan har bir jumla nafaqat mantiqiy mazmun, balki ma'lum bir hissiy-psixologik yuklamani ham o'zida mujassam etadi. Shu bois nutq nafaqat axborot berish vositasi, balki auditoriya kayfiyatini shakllantiruvchi, ularni ruhlantiruvchi va ishontiruvchi kuch sifatida ham qaraladi. Smith (2012, 334) nutqni "ikki marta kodlangan" jarayon sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, avval yozuvchi ma'noni matnda ifodalaydi, keyin esa ma'ruzachi og'zaki ifoda orqali unga qo'shimcha ohang, intonatsiya va hissiyotni yuklaydi.

1. Malik va Janjua (2011, 966) Malik, S., & Janjua, F. "Active Lecturing: An Effective
2. Heitzmann, R "10 Suggestions for Enhancing Lecturing." *Education Digest*, 75(9), 2010. pp. 52.
3. White, G. "Interactive Lecturing." *The Clinical Teacher*, 8(4), . 2011 pp. 231.
4. Smith (2012, 334)
5. Smith, R. *DBecoming a Public Relations Writer: A Writing Workbook for Emerging and Established Media*. New York: Routledge 2012. pp. 334-b.

Shunday qilib, tinglovchi matnning nafaqat mazmunini, balki ma'ruzachining kayfiyati va munosabatini ham his etadi. Bu jarayon nutqning ijtimoiy va psixologik qudratini yaqqol namoyon qiladi.

Gehring (1953, 101) ham nutqning ta'sirchanligi, avvalo, uning mazmuni va dalillariga, shuningdek, so'zlovchining auditoriya bilan o'rnatgan hissiy aloqasiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shu bois, notiqning ovoz ohangi, tana harakatlari, intonatsiyasi va hissiyotlarni ifodalash qobiliyati nutqni yanada kuchliroq qiladi. Golden (1965, 188) esa "nutq auditoriyaning qalbiga kirib boradigan chaqmoqdek ta'sir etishi" mumkinligini qayd etadi.

Xulosa

Demak, nutq faqatgina so'zlar yig'indisi emas, balki ikki bosqichli jarayon bo'lib, unda matnning mantiqiy mazmuni va ma'ruzachining ijro san'ati uyg'unlashadi.

Bu uyg'unlik esa auditoriyaning ongini ham, hissiyotini ham zabt etishga xizmat qiladi.

Nutq san'ati – insoniyat tarixidagi eng qadimiy va eng ta'sirchan madaniy hodisalardan biridir. U orqali inson o'z fikrlarini ifodalaydi, maqsad va g'oyalarini bayon qiladi, boshqalarni ishontiradi va ruhlantiradi, jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga turtki bo'ladi. Notqlik san'ati qadim davrlardan buyon siyosiy hayot, sud majlislari, diniy marosimlar va ta'lim jarayonida asosiy vosita sifatida qo'llanib kelgan

Klassik notqlik nazariyasi va zamonaviy pedagogik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ravshanlik nutqning mazmunini aniq yetkazishni ta'minlasa, mantiqiy dalil auditoriyaning aqliy jihatdan ishontiradi, hissiy ta'sirchanlik esa tinglovchilarning qalbiga yo'l topadi. Bu uch jihat uyg'un bo'lgandagina nutq chinakam samarali bo'ladi (Gehring, 1953; Smith, 2012).

Bugungi globallashuv va raqamli kommunikatsiyalar davrida nutq san'atini chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlari uchun ham dolzarbdir. Chunki nutq inson tafakkurining

1. Gehring (1953, 101) Gehring, M. L "The High School Oration: Fundamentals." *The Speech Teacher*, 2. 1953., pp. 101–104.

2. Golden (1965) yilgi "The Rhetoric of Western Thought" 185-b ifodasi bo'lish bilan birga, ijtimoiy ongning shakllantirish va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois nutq san'ati nafaqat tarixiy meros, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ham muhim tayanchlaridan biri sifatida o'rganilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov, A. O'zbek tili fonetikasi. *Toshkent: Fan*, . 2007)215 b.
2. Begmatov, E. O'zbek tili uslubiyati. *Toshkent: O'qituvchi*, 1995. 187 b.
3. Jo'rayev, M. Nutq madaniyati va notqlik san'ati. *Toshkent: Yangi asr avlodi*, 2012. 210-b.
4. Madvaliyev, A. O'zbek tili stilistikasi. *Toshkent: Fan*, . 2006. 246 b.
5. Rasulov, R "O'zbek tilida ritorik birliklarning qo'llanishi va ularning ijtimoiy ahamiyati." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, . 2018. 2-son, 45–52-b.
6. Sodiqov, Q. Til va jamiyat. *Toshkent: Ma'naviyat*, 2005. 190 b.

- 8.Yo‘ldoshev, M. “*Nutq madaniyati va uning kommunikativ funksiyalari.*” Filologiya masalalari, . 2010. 4-son, 33–40-b.
- 9.Cicero, M. T. *Stories of Roman History from Cicero’s Orations.* London: George Bell & Sons 1884., pp. 147–178.
- 10.Gehring, M. L “The High School Oration: Fundamentals.” *The Speech Teacher*, 2. 1953., pp. 101–104.
11. Golden (1965) yilgi “The Rhetoric of Western Thought” 185-b
- 12.Hjelmquist, E. “Psycholinguistics as Scientific Encounters.” *Folia Linguistica*, 13(3/4), 1979. pp. 215–227.
- 13.James, N. *Writing at Work: How to Write Clearly, Effectively and Professionally.* Crows Nest, NSW: Allen & Unwin, 2007) pp. 90–95.
- 14.Malik, S., & Janjua, F. “Active Lecturing: An Effective Pedagogical Approach.” *International Journal of Academic Research*, 3(2), pp. 2011. 963–967.
- 15.McDaniel, K. N. “Harry Potter and the Ghost Teacher: Resurrecting the Lost Art of Lecturing.” *The History Teacher*, 43(2), 2010. pp. 289–295.
- 16.Smith, R. D *Becoming a Public Relations Writer: A Writing Workbook for Emerging and Established Media.* New York: Routledge 2012. pp. 330–345.
17. .“Sitseron (1884, 147)” ko‘rsatilishi — bu Sitseronning “De Oratore” asarining 1884-yil, 147-b.
- 18.White, G. “Interactive Lecturing.” *The Clinical Teacher*, 8(4), . 2011 pp. 230–235.
- 19.Heitzmann, R “10 Suggestions for Enhancing Lecturing.” *Education Digest*, 75(9), 2010. pp. 50–54.